

Mahliyo Ahmadqulova

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘quvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo qalamiga mansub she’rlarda ko‘tarilgan mavzular yuzasidan tahlillar keltirilgan. Shoirning she’rlaridagi vatanga muhabbat tuyg‘ulari va bir qancha mavzularga bag‘ishlangan she’rlariga tahliliy munosabat bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** she’riyat, tahlil, badiiy so‘z, ko‘ngil tushunchasi, ruhiyat, “Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?”, “Yurakning shakli”, “Meni eslaysanmi”, “Sizni kuylayman”.

## ПОЭЗИЯ СТИХОВ ИКБОЛА МИРЗО

**Аннотация:** В данной статье проводится анализ вопросов, поднятых в стихах народного поэта Узбекистана Икбола Мирзо. Стихи поэта посвящены чувству патриотизма и аналитическому подходу к своим стихам по ряду тем.

**Ключевые слова:** Поэзия, анализ, художественное слово, ментальная концепция, психика, “Скажи, друг, что мы сделали для Родины?”, “Форма сердца”, “ты меня помнишь”, “я тебя пою”.

## POETRY OF IQBOL MIRZO’S POEMS

**Annotation:** This article provides an analysis of the issues raised in the poems of the People’s Poet of Uzbekistan Iqbol Mirzo. The poet’s poems are full of love for the motherland and an analytical approach to his poems on a number of topics.

**Keywords:** poetry, analysis, artistic word, mental concept, psyche, “Tell me, my friend, what have we done for the motherland?”, “The Shape of the heart”, “do you remember me”, “I sing You”.

“Badiiy adabiyot hamma uchun qiziqarli va foydali bo‘lgan juda ko‘p muammolarni, dastavval ijtimoiy va axloqiy masalalarni qamrab oladi. Insoniyat psixologiyasi va intilishlarining mushtarakligi tufayli bir xalq vakili(yozuvchi) tomonidan shu xalq hayotiga asoslanib yaratilgan asar, agar yuqori g‘oyaviy va badiiy saviyada yozilgan bo‘lsa, o‘z-o‘zidan yer yuzining hamma joylaridagi kishilar uchun qiziqarli bo‘lib qoladi” [1, 47].

Zamonaviy o‘zbek she’riyatining yorqin namoyondalaridan biri Iqbol Mirzo hisoblanadi. Uning she’rlari o‘zining rang – barangligi, dilga yaqinligi bilan bosha ijodkorlardan ajralib turadi. Shoir she’rlarini turli mavzularda yozadi. Vatan, tabiat, ishq – muhabbat va shu kabi mavzularda bitilgan she’rlar uning ijodini qamrab olganini shoirning she’rlarida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shoirning “Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?”, “Yurakning shakli”, “Meni eslaysanmi”, “Sizni kuylayman” kabi she’riy to‘plamlarida hali qalamga olinmagan yangicha mavzularni ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, shoirning ona yurt mavzusida yozgan she’rlarining ko‘lami keng. Shoirning Vatan haqida

yozilgan she'rlari bilan tanishar ekansiz, shubhasiz, ko'z oldingizda Jannatmakon O'zbekistonimizning go'zal manzaralari gavdalanadi. Quyida shoirning "Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?" she'ri bilan tanishasiz.

Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt,  
Seni guldek erkalagan chaman uchun.  
Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun? [2, 4]

Yuqoridagi ijod namunasida shoir she'riy misralari orqali "Vatan bizni o'z bag'rida avaylab – asrab o'stirgani, katta qilgani haqida so'z bormoqda. Buning uchun bizlar Vatanimizga ta'zim qilib, shukronalar keltirishimiz, avvalo, uni avaylab – asrashimiz kerakligi takidlanmoqda. Shoirning ushbu ijod namunasida tasvir soddalik, samimiylilik, yurti uchun qayg'urish hissi, Vatanga bo'lgan muhabbatni ulug'lash kabi yuksak insoniy fazilatlar bilan yo'g'rilgan.

Shoir qaysi mavzuda yozmasin, doim bir xillikdan qochishga harakat qiladi. Yangicha fikrlar, yangicha qarashlar shoir she'rlarida yaqqol ko'rinish turadi.

Iqbol Mirzo she'riyati haqida so'z yuritar ekanmiz, uning ijodida muhabbat lirikasi alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ijodkor bu tuyg'uni o'ziga xos tashbehtar, samimiylilik fikrlar bilan ulug'laydi. Shoir "Sevgi deganlari" nomli she'rida shunday yozadi:

Ko'ngilning yurakdan nima farqi bor –  
Sevgi deganlari yo'q bo'lsa agar. [3, 77]

Birinchi qatordagi misralar orqali shoir o'rtaga oddiy savol tashayapti va keyingi qatorda savoliga javob berilmoqda. Insonlar o'rtasida yurak va ko'ngil tushunchalarining farqi nimada ekanligi odamlar o'rtasida ko'plab bahslarga sabab bo'lgan. Yurak inson tanasining a'zosi ekanligi hammamizga ma'lum, lekin yana bir tushuncha – ko'ngil tushunchasi ham mavjudki, u ilohiyat bilan bog'liq inson ruhining ifodasi sifatida tasvirlanadi. Shoir ana shu ikki tushunchani farqlab beradi va shu yo'sunda muhabbatning qudratini yana bir bor aniq ko'rsatib beradi.

Shoirning yana bir "Ariq yuzida" sarlavhali she'rida shunday yozadi:  
Muzlar quchog'ida isindi vido,  
Uzilgan tor kabi ajralishdik biz.  
Siz mag'rur ketdingiz uygacha, ammo  
Nechun yig'lab bordi etiklaringiz?...[4, 28]

Yuqorida qalamga olingan bandda shoir oshiqlarning ayrilik'ini torning uzilishiga qiyoslaydi. "Yig'lab borayotgan etiklaringiz" tasviri beixtiyor ko'nglimizda titroq uyg'otadi. Bu ilohiy dardlarni biz ham qalbimizda his qilamiz. She'riyatning asl mohiyati ham shunda. Chunki she'riyat insonning butun bir dardini, quvonchini, baxti-yu iztiroblarini o'zida mujassam etadi va unga oshno bo'lgan har bir inson qalbida ana shunday tuyg'ular paydo qilib, qalblarni poklaydi.

Shoirning she'rlari o'zining soddaligi, samimiyligi bilan kitobxonlarning qalbidan chuqr joy olib kelmoqda. Iqbol Mirzo she'r yozayotganida umumiylikdan qochib noodatiy

mazvudagi she'rlar yozishga harakat qiladi. Quyida shoirning “Baxt nima” she'ri bilan tanishamiz:

Baxt nima? Shaklini ko'rganlar bormi?  
Suvratin muhrlab olgan qachon qalb?  
Men baxtimni ko'rdim ko'zida yorning  
Men bugun baxtimni yotdim achomlab.[5, 23]

Ushbu she'rda ham soddalik va samimiylig barq urib turganligi, shoir tashbehlari va o'xshatishlarni chiroyli qo'llanganligi uning so'z qo'llash mahoratining kuchli ekanligi, shoirning mahoratli shoir ekanligidan dalolat beradi. She'rning birinchi va ikkinchi misralarida shoir kitobxonga “Baxt nima? Shaklini ko'rganlar bormi?, Suvratin muhrlab olgan qachon qalb?” – deya savollar bilan yuzlanmoqda. Aslida baxt nisbiy narsa, uning shakli ham ko'rinishi ham mavjud emas. Lekin shoir ushbu she'rida baxtni yorning ko'zida ko'rganligini ta'kidlamoqda. She'rning birinchi bandining oxirgi misrasida shoir: “Men bugun baxtimni yotdim achomlab.” – deb yakunlagan. Bu yerda shoir she'riy san'atlarning tashbeh she'riy san'atidan mahorat foydalangan. Chunki yuqorida keltirib o'tganimizdek: “Baxt – nisbiy narsa”, uni ushlab ham, ko'rib ham, achomlab ham bo'lmaydi. Shoir esa “Baxtimni quchoqlab yotdim”, - deya mubolag'a qilgan. Ushbu she'r orqali ko'rishimiz mumkinki, shoir sodda yozishiga qaramay, barcha she'rlarini falsafiy yozadi.

Haqiqatdan ham shoirning ijodini falsafiylik qamrab olgan. Shoirning “Uyg'onish” she'rida ham xuddi shunday holatni ko'rishimiz mumkin.

Yumshoq shamollarni qo'zg'atib uchdim,  
Kahkashon – shiddatim qoldirgan oq iz..

Sening olamingga boryapman, kutgin,  
Osmonni quchoqlab yotgan g'amgin qiz!.. [6, 23 ]

Ushbu she'rda ham shoir mubolag'a she'riy san'atidan foydalangan. She'rning birinchi misrasida “yumshoq shamol” deb qo'llanishi tashbeh she'riy san'ati sanaladi. Shuningdek, shoir she'rning oxirgi misrasida “osmonni quchoqlab yotgan g'amgin qiz” deya yana bir karra mubolag'a she'riy san'atidan foydalangan. Bu esa she'rning ta'sirchanligini oshirishga va badiiylashtirishga yordam bergen, albatta.

Xulosa qilib aytganda, Iqbol Mirzo she'riyatida qo'llanilgan har bir obraz, o'xshatish va mubolag'alar o'zining ta'sirchanligi bilan kitobxonlarga estetik zavq bag'ishlaydi va bu tahsinga sazovordir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariysi. – Toshkent:, – “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. 47 b
2. Iqbol Mirzo. Agar Jannat ko'kda bo'lsa... . – Toshkent, —”Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 2010. 4 b.
3. Iqbol Mirzo. Tanlangan she'rlar. – Toshkent:. —G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. 77 b.

4. Iqbol Mirzo. Tanlangan she'rlar. – Toshkent: —G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. 28 b.
5. Iqbol Mirzo. Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?!. – Toshkent, —O'zbekiston nashriyoti, 2014. 23 b.
6. Iqbol Mirzo. Tanlangan she'rlar. – Toshkent: —G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. 23 b.